

**O‘QITUVCHILAR VA O‘QUVCHILAR O‘RTASIDAGI SHAXSLARARO  
MUNOSABAT JARAYONIDA MULOQOTNING TUTGAN O‘RNI**

*Normurodova Gavhar Toirovna*

*Denov tafbirkorlik va pedagogika instituti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada insonlarning eng zarur ehtiyojlaridan biri bo‘lgan muloqot qilish hodisasiga bag’ishlangan bo’lib o‘quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o‘z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi. Biz uchun esa so‘zlashishni bilish lozim. So‘zlashishni, muloqot olib borishni doimo o‘rganib borishi lozim. U darsni samarali olib borishni, so‘zlashishni bilishi, suhbat, leksiya, hikoya qilish kabi usullaridan foydalanishi, umuman butun ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar bilan muloqotni yo‘lga qo‘ya olishi lozim.

**Kalit so‘zlar:** Muloqot, kommunikativ, interaktiv, pertseptiv, suxbatlashuv, shaxslararo suhbat.

O‘qituvchi o‘quvchiga bilimlarni ma’lum qiladi va o‘z navbatida teskari aloqa tarzida undan ma’lum qilingan bilimlar qanday o’zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi. O‘zaro birgalikdagi harakat mohiyatlar darajasida amalga oshiriladi. Pedagogning tarbiya vazifalarini amalga oshirishi jarayoni, o‘quvchilarga ko‘rsatadigan ta’siri tarbiyalanuvchilar ko‘rib, eshitib va bajarib borayotgan mazmunlarning muayyan darajada o‘zgarishini taqozo qiladi. Pedagog ko‘rsatadigan ta’sirning turlicha samara kasb etishi zamirida uning shaxsiyatiga oid xususiyatlar, uning o‘zini davom ettirish, o‘zining shaxsiyatiga oid mazmunlami yoshlarga o’tkaza bilish qobiliyati, uning pedagogik munosabati xarakteri va samaradorligi mujassamlashgandir. Muloqot jarayonida kommunikatsiya ishtirokchilari axborot almashish davomida bir-biriga ta’sir etib boradi. O‘zaro ta’sir xususiyatlarini aniqlash uchun muloqotning interaktiv tomonini o‘rganish zarur bo‘ladi. Muloqotning interaktiv tomoni — birgalikdagi faoliyatni tashkil etish va

amalga oshirishda muloqot ishtirokchilarining bir-biriga ta'sir o'tkazishidir. Kommunikatsiya orqali kishilar birgalikdagi umumiy faoliyatni tashkil etadilar. Bunda kishilar albatta, bir-birlariga ta 'sir ko'rsatadilar. Shuning uchun o'zaro ta'sir birgalikdagi faoliyatning tashkil etilishi sifatida tushuniladi. Birgalikdagi faoliyatning uch xil modeli mavjud: 1. Har bir ishtirokchi boshqalardan mustaqil ravishda o'ziga tegishli qismini bajarishi (uy ishlari). 2. Umumiy vazifaning bosqichma-bosqich har bir ishtirokchi tomonidan bajarilishi (konveyerdagi ish). 3. Har bir ishtirokchi boshqalar bilan birgalikda bir vaqtning o'zida umumiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi (futbol jamoasidagi ish). Muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sirning ikki xil turi ajratiladi: 1. Kooperatsiyaga asoslangan o'zaro ta'sir — kommunikativ jarayon ishtirokchilarining umumiy maqsad yo'lida o'z kuchlarini birlashtirishidan iborat. Kooperatsiyaning bir necha turi farqlanadi: avtomatik (instinktid), an'anaviy, spontan (muhabbat, do'stlik kabi munosabatlar asosida), direktiv (majburiy hamkorlik hukm suruvchi joylarda), shartnomaviy (rasmiy kelishuvlar asosida). Kooperatsiya — birgalikdagi faoliyatning zaruriy elementidir. 2. Raqobatga asoslangan o'zaro ta'sir — kommunikativ jarayon ishtirokchilarining shaxsiy yoki guruhiy maqsadlarga erishish uchun o'zaro kurash sharoitida bir-biriga ta'sir ko'rsatishidan iborat. Bunday o'zaro ta'sirda tomonlarning shaxsiy faolligi odatda yuqori bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, u kooperatsiya bilan ma'lum darajada bog'liqdir. Chunki raqobat davomida ham muayyan qoidalar o'rnatilishi talab etiladi. Aks holda o'zaro kurash urushga aylanib ketishi mumkin. Muloqotga kirishuvchilarining o'zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan muloqotdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg'ular va afzallikning o'zaro taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual — tanlash tizimi sifatidagi do'stlik kishilar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi. Muloqotda teskari aloqa va muloqot treningi Muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun u albatta qayta aloqaga ega bo'lishi — subyekt o'zaro ta'sir natijalari haqida axborot olishi kerak. Kommunikator o'zi uzatgan axborotni retsipyent qanday qabul qilishini va qanday munosabatda

bo'layotganligini qayta axborot ma'lumotlariga asoslanib bilib oladi. Muloqotda suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunishning asosiy shartidir. Agar o'qituvchi o'quvchilar uni qanday idrok etayotganligini, tushunayotganligini anglay olmasa pedagogik muloqot yaxshi bo'lmaydi. Ayniqsa, ma'ruza o'tayotganda bu juda muhimdir. Radio-televideniyeda so'zlayotgan kishi teskari aloqani ololmay qiynaladi, ba'zan fikrlari chalkashib ketishi, odatdag'i ohang yo'qolishi mumkin. Agar hamsuhbatni ko'rish orqali idrok etish imkoniyati bo'lmasa, qo'l barmoqlari va yuz harakati orqali bo'ladigan im o-ishoralar kambag'allashib, harakatlar erkinligini yo'qotib qo'yadi. Hamsuhbatning fe'I-atvorini idrok etish chog'ida olinadigan signallar shaxsning keyingi harakatlari va fikrlarini to'g'rilab borish uchun asos bo'ladi. Umuman hamsuhbatni yoki tinglovchini idrok etish muloqot vaqtida o'zaro hamjihatlikka erishishning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. O'qituvchining ma'ruza vaqtida teskari aloqaga ega bo'lishi laboratoriya va amaliy mashg'ulotlardagiga qaraganda qiyin. Demak, shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa xabar beruvchi vazifani va o'zini o'zi boshqarish vazifasini bajaradi. Kishining jismiy qiyofasidagi ayrim belgilar (yuzlari, qo'llari, yelkalari), o'zini tutishi, qo'llari va gavdasini qimirlatib imo-ishora qilishi, so'zlash ohangi axborot tashuvchilar sifatida xizmat qiladi. Trening — inglizcha «maxsus rejim, mashq» degan ma'noni bildiradi. Kishilarda muloqot malakalari tasodifan yoki ta'lim mahsuli sifatida shakllanib boradi. Masalan, o'quvchilarni to'liq mufassal va aniq javob berishga, o'zidan kattaga muomala qilganda o'midan turishga o'rgatib boriladi. Ijtimoiy-psixologik trening ikki xil vazifani: 1-muloqot va pedagogik muomala qonuniyatlarini o'rganish. 2-pedagogik kommunikatsiya jtexnologiyasini egallah, kasbiy pedagogik muomala, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni ta'minlaydi. Psixologik-pedagogik treningning bir shakli ish o'yinlaridir. Kishilarda samarali muloqot o'rnatish malakalari tasodifiy ravishda tarkib topadi yoki ta'limning yordamchi mahsuli sifatida yuz beradi (1-sinf o'quvchisi to'laqonli javob qaytarishga, kattalar unga murojaat qilayotganda o'midan turishga va boshqalarga o'rgatiladi). Ijtimoiy-psixologik trening muammosining nazariy va amaliy tomonlari ajratiladi. Amaliy

tomoni o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqot ko'nikmalari, malakalarini egallahsga va ularni chiniqtirishga qaratilgan mashqlar: darsning barcha bosqichlarida izchillik bilan harakat qilish malakalarini, pedagogik ish davomida mushaklarning zo'riqishini so'ndirish malakalarini, ixtiyoriy diqqatni taqsimlash malakasini shakllantirishga, kuzatuvchanlikni namoyon qilishga qaratilgan mashqlami taqozo etadi. Magnitofon yozuvi yordamida teskari aloqadan foydalangan holda o'tkaziladigan nutq texnikasi va madaniyatiga doir mashqlar, tobora rasm bo'lib borayotgan videomagnitofon texnikasi bor joylarda o'quvchilar bilan muloqotga kirishilgan sharoitlarda adekvat (aynan o'xshash) mimika va pantomimikaning rivojlantirilishini ta'minlaydigan mashqlar alohida ahamiyatga egadir. O'zining magnitofon lentafiga yozilgan ovozini tinglayotgan va buning ustiga yana o'zini videomagnitofon ekranida ko'rayotgan kishining nutqini, mimikasini va pantomimikasini to'g'rilash uchun qulay imkoniyatlarga ega bo'lishi, o'zini «tashqaridan turib» xuddi boshqa kishini idrok qilganday idrok etishi ma'lum. Psixologik-pedagogik trening shakllaridan yana biri tipik vaziyatlarni, masalan, imtihonlarni modellashtiruvchi amaliy o'yinlardir. Muloqot treningi, ya'ni muloqotni mashq qilish pedagogik ta'lim uchun juda muhim omil bo'lib hisoblanadi..Moddiy muloqotda sub'ektlar, shaxsiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan holda, uning mahsulotlari bilan almashadilar, ular o'z navbatida dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Konditsiyali muloqotda odamlar o'zlarini ma'lum jismoniy yoki ruhiy holatga keltirishga mo'ljallangan bir-birlariga nisbatan o'zaro ta'sir ko'rsatadilar. Masalan, kayfiyatni ko'tarish yoki, aksincha, uni tushirib yuborish; bir-birini qo'zg'atib yuborish yoki tinchlantirish, va, oqibatda, bir-birining kayfiyatiga ma'lum ta'sir o'tkazish. Motivatsiyali muloqotning mazmuni bir-biriga ma'lum istak, mayllarni etkazish yoki ma'lum yo'nalishda harakatlanishga shay bo'lishlikdan iborat. Bunday muloqot sifatida insondagi biror maqsadga, boshqa odamda biror-bir intilishning paydo bo'lishi yoki yo'qolishi, kimdadir harakatga bo'lgan ma'lum maylning yuzaga kelishi, qandaydir ehtiyojning dolzablashtirilishi uchun etishish istagini kuchliligi kabi vaziyatlarni keltirish mumkin. Kognitiv va

faoliyatli muloqotning ifodasi bilish yoki o‘quv faoliyatining turlari bilan bog‘liq muloqot bo‘la oladi. Bunda sub’ektdan sub’ektga dunyoqarashni kengaytiruvchi, layoqatlarni rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi axborot etkaziladi.

Maqsadlariga ko‘ra, muloqot xizmat ko‘rsatish ehtiyojlariga muvofiq holda biologik va ijtimoiy turlarga bo‘linadi. Biologik – bu organizmni mustahkamlash, muhofazalash va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan muloqot. U asosiy hayotiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq. Ijtimoiy muloqot maqsadlari shaxslararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, individ shaxsiy kamolotining interxususiy munosabatlarini o‘rnatish va rivojlantirishdan iborat. Biologik va ijtimoiy ehtiyojlarni nechta turga ajratish mumkin bo‘lsa, muloqotning ham shuncha xususiy maqsadlari bo‘lishi mumkin. Vositalariga ko‘ra, muloqot bevosita va vositali, to‘g‘ridan –to‘g‘ri va bilvosita bo‘lishi mumkin. Bevosita muloqot tirik mavjudotga tabiat tomonidan berilgan tabiiy organlar: qo‘llar, bosh, tana, tovush paylar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Vositali muloqot muloqot va axborot almashinuvni tashkil etishda maxsus vosita va qurollardan foydalanish bilan bog‘liq. Bular yo tabiiy (yog‘och, erdag‘i izlar va h.k.) Yo madaniy (belgilar tizimlari, matbuot, radio, televidenie, internet va h.k.) Jismlar. To‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot shaxsiy aloqalar va muloqot aktining o‘zida qatnashayotgan odamlarning bir-birini bevosita idrok qilishini belgilaydi, ularga, masalan, jismoniy aloqalar, odamlarning bir-birlari bilan suhbatlashishlari, bir-birlarining harakatlarini bevosita ko‘rib turgan holda, ularga javob qaytarishlari kiradi. Bilvosita muloqot vositachilar sifatida ish yuritadigan boshqa odamlar orqali amalga oshiriladi.

Do‘srlarning ma’naviy, shaxslararo muloqoti vaqtida istalgan mavzuni qo‘zg‘atish va bir-birlarini yuz ifodasi, tovush ohangi va harakatlar yordamida tushunish mumkin. Inson hayotida muloqot alohida jarayon yoki faollikning mustaqil shakli sifatida mavjud bo‘lmaydi. U jadal va ko‘p tomonlama muloqotsiz paydo bo‘lmaydigan individual yoki guruhli amaliy faoliyatga kiradi. Muloqot o‘zining maxsus masalalari hal etiladigan ma’lum davrlarga ega. Eng mas’uliyatli davr tayyorgarlik davri – muloqotni rejalashtirish, o‘zi uchun

muloqot natijalariga qaratilgan mayllarni aniqlab olish zarur. Muloqotning birinchi bosqichi – aloqaga kirishish. Bunda vaziyatga kirishish, sherikning holati, kayfiyatini his etish, o‘zi kirishib ketib, boshqasiga ham yo‘nalishini belgilab olishga imkon yaratish muhimdir. Bu davr ruhiy aloqa o‘rnatalishi bilan yakunlanadi. So‘ngra qandaydir muammo, tomonlarning vazifasi va mavzuni ishlab chiqishda diqqatni jamlash davri boshlanadi.

Keyingi bosqich – motivatsion zondaj. Uning maqsadi – suhbatdoshning motivlari va qiziqishlarini anglash. So‘ngra diqqatni mustahkamlash bosqichi boshlanadi, keyin esa fikrlarda nizolilar bo‘lsa, asoslash va ishontirish bosqichi keladi. Va, nihoyat, natijalarni qayd etish bosqichi boshlanadi. Agar mavzular ko‘rib chiqilgan bo‘lsa yoki sherik notinchlik alomatlarini namoyon qilgan taqdirda muloqotni yakunlash zarur. Muloqotni doimo davom ettirish istiqboli bilan yakunlash kerak. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so‘zlar, qarashlar, qo‘l siqishlar o‘ta muhimdir, ba’zida ular ko‘p vaqt davom etgan suhbat natijasini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin. O‘qituvchining ta’lim-tarbiya sohasidagi faoliyatida erishishi lozim bo‘lgan barcha ijobiy natijalari uning o‘quvchilar bilan jonli va erkin muloqotni to‘g‘ri tashkil etishi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi so‘z san’atining cheksiz qudrati asosida o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi, har bir darsni samarali tashkil etib olib boradi, o‘quvchilar bilan so‘zlashishni biladi, tarbiyaning suhbat, ma’ruza, hikoya qilish kabi usullaridan o‘rinli foydalanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar bilan qizg‘in muloqotni amalga oshiradi. Ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni mukammal tashkillashtirish o‘qituvchining jonli muloqotni samarali tashkil etishiga bog‘liq. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchining muloqoti ijobiy natijalar berishi uchun o‘qituvchida o‘quvchilar bilan erkin so‘zlashuv qobiliyati bo‘lishi kerak. Zero, o‘qituvchi bilan o‘quvchining muloqotini bog‘lovchi asosiy vosita – so‘zdir. O‘qituvchining so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, muloqot olib borish qobiliyati tez namoyon bo‘lib, ijobiy natjalarga erishishi oson bo‘ladi.

Odatda so‘z boyligi qashshoq bo‘lgan o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyatlarida o‘quvchilar bilan tez-tez ziddiyatlarga duch keladilar. O‘qituvchining

jonli muloqoti har qanday tarbiyaviy tadbirning mazmun va mohiyatini o‘quvchiga tabiiy holda yetkazadi, shu jarayonning ob’ekti va sub’ekti o‘rtasida muloqot uchun mustahkam ko‘prik yaratadi va ichki hissiyot bilan harakatlarning uyg‘unlashuvini ta’minlaydi.

Jonli muloqot – o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta’lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og‘zaki so‘z bilan o‘quvchilarga yetkazadigan, o‘qituvchini ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo‘lgan faoliyatdir. Yosh o‘qituvchi pedagogik mahoratida mujassamlashgan nutqning jozibadorligi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o‘tkir dunyoqarashi, ma’naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibligi har qanday dars va darsdan tashqari ta’lim-tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta’minlovchi hamda o‘qituvchi jonli muloqotini tashkil etuvchi omillardir. O‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi jonli muloqot qobiliyatini takomillashtirish uchun o‘z oldiga doimo quyidagi savollarni qo‘yib, unga mustaqil fikr-mulohazasi asosida javob bera olishi kerak:

1. Nimaga o‘rgatish:
  - a) o‘quvchilarni o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ilmiy yangiliklardan xabardor etish, fan terminlarini tushuntirish, o‘quv predmetini to‘liq o‘zlashtirish;
  - b) o‘quvchilarda shaxs erkinligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
  - v) o‘quvchilarning o‘rganilayotgan fan bo‘yicha qobiliyatlarini, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;
  - g) yangi mavzuni fanlararo aloqadorlik asosida tushuntirish;
  - d) dars jarayonini pedagogik va axborot texnologiyalarining qiziqarli metodlari asosida tashkil etish.

## 2. Kimni o‘rgatish:

- a) kelajakda mamlakat taraqqiyoti uchun mas’ul, davlat siyosatining ustuvor sohasi bo‘lmish barkamol insonga ta’lim-tarbiya berish;
- b) o‘quvchilarni bilim olish va tarbiyalanishi jarayonida duch keladigan muammolar va qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf etishga o‘rgatish;
- v) o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish;

g) dars va darsdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayonini o‘quvchilar fikrlarini inobatga olgan holda tashkil etish;

d) yosh va murg‘ak qalb egasi bo‘lmish o‘quvchilarning psixologik o‘zgarishlari va rivojlanishlarini inobatga olish;

e) iqtidorli o‘quvchilar bilan yakka holda pedagogik faoliyat olib borish.

3. Qanday o‘rgatish:

a) o‘qituvchi o‘z faoliyati davomida to‘plagan pedagogik tajribalari asosida kompyuter, axborot va innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda ta’lim berishi;

b) yuksak pedagogik mahorat bilan dars va darsdan tashqari vaziyatlarda tarbiyaviy jarayonni milliy mafkura, an’ana va qadriyatlar asosida tashkil etish;

v) o‘quvchilarni bilim olishga qiziqishini oshirish maqsadida pedagogik ta’sir ko‘rsatishning turli usullaridan foydalanish;

g) ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda belgilangan maqsadga erishish uchun, mahalla faollari, ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash.

O‘qituvchining o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar jamoasi bilan uzviy aloqada bo‘lishi, uning jonli muloqotni to‘g‘ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar bilan jonli muloqotga kirishib, ularning hurmat e’tiboriga sazovor bo‘lish birdaniga sodir bo‘ladigan va ta’lim-tarbiya sohasida yutuqlarga darhol yetaklaydigan jarayon emas. Buning uchun o‘qituvchi yillar davomida tayyorlanadi, pedagogik mahorat sirlarini egallaydi, tajribali ustoz o‘qituvchilarning yutuqlaridan foydalanadi. Yosh o‘qituvchilar uchun jonli muloqotni yaratishda quyidagi vazifalarga e’tibor berish talab qilinadi:

- o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, psixik holatini chuqur o‘rganish, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari faoliyati bilan tanishish, ularga nisbatanadolatli munosabatda bo‘lish;

- jonli muloqot asosida mustaqil fikrlovchi, o‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga intiluvchi erkin shaxsga ta’lim-tarbiya berishi shartligini unutmaslik;

- jonli muloqotning pirovard natijasi o‘quvchilarni o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati bilan mas’uliyatni his etishini ta’minlashi, ularni ongli ravishda ozod va hur fikrlovchi inson bo‘lib tarbiyalanishini ta’minalash;
- jonli muloqot tufayli o‘quvchilarning yuksak darajadagi intellektual salohiyatlarini, aql zakovati qudratini yuzaga chiqarishga erishish.

Pedagogikada jonli muloqotning muhim jihatlaridan biri uning vositalaridir. Vositalar tashkilotchilik qobiliyati, baho beruvchi, intizomga undovchi bo‘lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda o‘qituvchi o‘z ishining mohir ustasi bo‘lishi uchun tashkilotchilik qobiliyati asosida ta’sir ko‘rsatishga ko‘proq yondashishi lozimligi ta’kidlanadi. Muloqotdagi noo‘rin vaziyatlarni o‘qituvchining o‘zi tajribasizligi tufayli paydo qiladi. U o‘quvchilar bilan bir xil o‘zaro jonli muloqot olib bora olmaydi, ba’zi ishtirokchilarga nisbatan tazyiq o‘tkazsa, ba’zi ishtirokchilarga muvofiq ravishda faoliyat olib boradi. O‘qituvchi jonli muloqotga emotsiyonal tus berish bilan neytral holat orqali muloqotdagi faoliyatini ijodiylikdan salbiylikka o‘zgartirishi mumkin. Bularning hammasi muloqot muhitini, sinfdagi ma’lum iqlimni o‘zgartiradi. Takomillashgan pedagogik muloqot o‘qituvchining o‘z jonli muloqoti jarayonida va erishilgan yutuqlari natijalarini muntazam nazorat qilib borishini nazarda tutadi. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik muloqot davomida o‘qituvchi tanlagan vositalar ta’lim-tarbiya jarayonining vazifa va sharoitlariga muvofiq kelishini o‘lchovchi vosita sifatida tushuniladigan pedagogik nazokat mujassamlanadi. Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi jonli muloqot orqali

quyidagi funksiyalarni bajaradi: birinchidan, ta’lim-tarbiya jarayonining o‘qituvchi tomonidan yakka holda olib borilishi va bu faoliyatga yagona o‘zi javobgarligi; ikkinchidan, ta’lim-tarbiya jarayonida bir maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy – psixologik tizimning bir maromda

ta’minalashi; uchinchidan, ta’lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatida muayyan bir tizimning tashkil qilinishi;

to‘rtinchidan, o‘quvchilarni mustaqil fikrlovchi erkin shaxs sifatida shakllantirish,

yashirin iste'dodini ro'yobga chiqarishga erishish imkoniyatlaridan foydalanish; beshinchidan, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi sifatida o'qituvchi pedagogik faoliyatining birlamchi vazifasi ekanligini unutmaslik.

Jonli muloqot jarayonida o'quvchilarning xulqi ijtimoiy qonuniyatlar maromiga zid kelsa, u holda uning hatti-harakatiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladi, ya'ni, e'tiroz, tanbeh, ogohlantirish kabi vositalar qo'llaniladi. Jonli muloqot o'qituvchilarning axloqiy namunalari muhim ahamiyatta ega bo'lib, axborot almashinuv, o'zaro ta'sir kabi muloqot vositalarining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Har bir fikr va e'tiroz bildirilganda, muloqotdan o'quvchining ruhiy o'zgarishlariga, tashqi ko'rinishiga e'tibor berish, lozim bo'lganda o'qituvchining uzr so'rashi, tavoze bilan o'quvchiga murojaat qilishi o'qituvchi muomala odobining muhim belgisidir. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot jarayonida nojo'ya hatti – harakati, qo'polligi, o'ylanmay bildirilgan noto'g'ri fikri, ortiqcha imo-ishoralari natijasida o'quvchilar bilan bo'ladigan jonli muloqotning buzilishiga, tuzatib bo'lmas qaltis vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida muloqot odobi, yaxshi muomala bilan fikr almashuv o'z o'mini nizoli vaziyatga bo'shatib beradi. Ushbu salbiy holatlarga yo'l qo'yilmaslik uchun, pedagogik muomalada o'quvchilar bilan o'zaro munosabat hurmat va ishonch negizida qurilishi kerak. Bunda o'qituvchi o'quvchining huquq va majburiyatini, maktabda, jamoada, oilada bajaradigan vazifalari nimalardan iborat ekanligini har lahzada eslatib turishi

lozim. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti samarali bo'lishi uchun suhbatdoshni o'ziga moyil qilib olish zarur. O'zaro moyillikka erishish uchun amalda qo'llanilib kelinadigan bir qator murakkab bo'limgan pedagogik ta'sir etuvchi usullardan foydalaniladi.

**Adabiyotlar:**

- 1.G'oziev E.G. Umumiyl psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
- 2.N. Mahmudov. O'qituvchi nutqi madaniyati.-T.:A.Navoiy nashr, 2007.-B.42.
- 3.Ilin I.N. Muomala san'ati. Pedagogik izlanish-I. P. Bajenova-T. O'qituvchi, 1990
- 4 I. V. Rodina, E. I. Bobrishova « O'qituvchining bolalar bilan muloqot qilish uslubi